ALISHER NAVOIYNING TIL HAQIDAGI QARASHLARI

Tangriyeva Umida Allaberganovna
Urganch davlat universiteti akademik litseyining
ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning adabiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatida tillarga, xususan, ona tiliga munosabati, til haqidagi qarashlarini, ona tilini rivojlantirish, uning boyligi va go`zalligi haqidagi, o`z xalqini ana shu tilda yozilgan g`oyaviy-badiiy yuksak asarlardan bahramand etish haqidagi g`oyalari, fikr-mulohazalari bayon etilgan.*

Buyuk shoir va adib, ulug` mutafakkir olim Alisher Navoiyning adabiy, ilmiy, ijtimoiy-siyosiy faoliyatida umuman tillarga, xususan, ona tiliga munosabati alohida o`rinni egallaydi. U deyarli barcha asarlarida o`zining til haqidagi qarashlarini, ona tilini rivojlantirish, uning boyligi va go`zalligi haqidagi, o`z xalqini ana shu tilda yozilgan g`oyaviy-badiiy yuksak asarlardan bahramand etish haqidagi g`oyalarini, fikr-mulohazalarini bayon etadi. Umrining oxirlarida esa o`zining bu sohadagi butun faoliyatini umumlashtiradi va ilmiy-tarixiy jihatdan katta qimmatga ega bo`lgan “Muhokamat-ul lug`atayn” (“Ikki til lug`ati haqida muhokama”) asarini yozadi.

Navoiyning lisoniy qarashlaridan eng muhimlari tilning kelib chiqishi, uning ijtimoiy mohiyati, til va tafakkurning umumiy masalalari, mazmun bilan shakl birligi kabilardir.

Insonni so`z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhari sharifroq yo`q ondin.

Bu satrlar Navoiyning til haqidagi asosiy g`oyalaridan biridir. Uning fikricha, tafakkur va til bir-biri bilan bog`liqdir. Inson qalbi-tafakkuri daryodir, so`z qimmatbaho toshdir, so`zlovchi esa g`avvos - tafakkur daryosidan dur

teruvchidir: *"... so`z durredurkim, aning daryosi ko`nguldur va ko`ngul mazharedurkim, jomiy maoniyi juzv va "quldur"*. Uningcha, mazmun, ma'no birlamchi, shakl, so`z esa ikkilamchi, ma'noning ifodasidir: "*Ammo chun alofoz va iboratdin murod ma'nidur va mazkur mahluqotdin maqsud insondur va ul mazhari maoniy va bayon so`z aning so`zindadur va takallum aning kalomida borur*". Shuning uchun "*ma'ni adosida alfoz tilga kelur va ul alfozdin ma'ni fahm bo`lur*". Durning qiymati turlicha bo`lgani kabi so`z ham har xil bo`ladi, "sharifidin o`lgan badanga ruhi pok etar, kasifidin hayotliq tanga zahri halok hosiyati zuhur etar". Shu asosda Navoiy tilning ijtimoiy xususiyatini, u mazmunning ifoda vositasi ekanligini, madaniyat va ma'rifatning rivojiga xizmat qilishini ko`rsatadi. U til doim rivojlanib boradi, tillar bir-biriga ta'sir qiladi, bir-birini boyitadi, deb qayd qiladi. Shunga qaramay, Navoiy til haqidagi qarashlarida, ayniqsa, tafakkur bilan tilning munosabati, tillarning paydo bo`lishi, ularning o`zaro bir-biriga ta'siri va boyitishi kabi masalalarda bir qator cheklanganlik va ziddiyatlar, qarama-qarshi mulohazalar uchrab turadi.

Navoiyning tilning lug`at boyligi, lug`aviy birliklarini turlicha uslubiy maqsadlarda qo`llash haqidagi fikrlari muhim ahamiyatga egadir. U ikki tilning lug`atini bir-biri bilan qiyosiy tarzda o`rganar ekan, fors-tojik tilida muqobili bo`lmagan ko`plab o`zbek so`zlarini keltiradi. Buning uchun dastlab fe'lning yuzta harakat nomi shaklini keltiradi: *quruqshamoq, usharmoq, jiyjaymoq, o`ngdaymoq, chekrimoq, do`msaymoq, umonmoq, o`sanmoq, umummoq, arg`adamoq, tanchiqamoq, bo`xsamoq* va boshqalar.

Harakat va holat bildirgan bu fe'l shakllari turlicha uslubiy maqsadlarda ma'no nozikliklarini ifodalashga xizmat qilishini ko`rsatadi va "bu yuz lafzdurki, g`arib maqsad adosida ta'yin qilibdurlarki, hech qaysi uchun sort tilida lafz yasamaydurlar" deb yozadi. Shundan keyin bir qator so`zlarni keltiradi va fors-tojik tilida ularning ma'nosini ifodalovchi so`z yo`qligini ko`rsatadi. Jumladan, sort tilida turkcha ichmoq fe'li no`shidan so`zi bilan beriladi. Ammo ichmoqning mubolag`asi sipqarmoq va zavq bilan lazzat topib

oz-oz ichishni bildiruvchi tomshimoq fe'llari uchun alohida so`z ishlatmaydilar. Yoki "…xublarning ko`z va qoshlari orasinki, qabog` derlar, forsiyda bu o`zining oti yo`qtur…

Mengizlari gul-gul, mijalari xor,
Qabog`lari keng-keng, og`izlari tor".

Qarindoshlikni bildiruvchi og`a va ini so`zlari fors-tojik tilida birgina *burador* so`zi bilan, egachi va singil so`zlari esa *sahar* so`zi bilan ifodalanadi. Yig`lamoqning turlicha holatlarini ifodalovchi yig`lamsinmoq, ingramoq, singramoq, siqtamoq, o`qurmak, inchkirmak kabi so`zlarning *girya kardan* so`zi bilan berilishi, otning egarini *zin deb jibilgir, xano to`qum, jazlig`, ularchog`, jilbur* kabi asboblarini turkcha so`zlar bilan atashlari, shuningdek, oziq-ovqat nomlari, turli hayvon va qushlarning yosh va jins jihatidan turlari, ichki bo`linishi nomlarining fors-tojik tilida yo`qligi ham shular jumlasiga kiradi.

Navoiyning turk-o`zbek tilining fonetik qurilishi, tovushlarning xususiyati haqidagi ilmiy fikrlari ham katta qimmatga egadir. U o`zbek tilida unli va undosh tovushlarning qattiq-yumshoq aytilishini, shu orqali so`zning ma'no va shakllari farqlanishi mumkinligini aniqlaydi. Bu hodisani u omonim va polisemantik so`zlarning tahlili hamda talaffuz etilishi orqali ko`rsatadi. Masalan, Navoiy o`zining fikrlarini ot, it, bor, tuz, ko`k, o`t, biz kabi so`zlarning tahlili orqali mustahkamlaydi. U harakat nomi shakllarini qizg`anmoq, kimsanmoq, bo`xsamoq hamda ko`ndirmak, bezanmoq, tergamoq tarzida berish asosida ham qattiqlik-yumshoqlikni farqlaydi. Navoiy so`z yasalishi va so`z shakllari yasalishi masalalarida ham to`g`ri, asosli fikrlar bayon qiladi va o`zbek tilida tasviriy-uslubiy vositalar, imkoniyatlarning boyligi, rang-barang ekanligini izohlaydi. U so`z yasalishi masalasida so`z oxiriga -chi qo`shish bilan mansab yoki hunar va peshani ifodalaydi. Mansabda

qo`rchi, suvchi, xazinachi, yurtchi, shilonchi va hunar-peshada qo`ruqchi, tamg`achi. halvochi, kemachi, qo`ychi, qushchi kabi. So`zga bir “voz” va “lom” qo`shish orqali harbiy sohalarga xos belgi bildiruvchi ot, sifat hosil bo`ladi: hirovul, qarovul, so`zovul, bakovul, shig`ovul, yasovul kabi so`zlarga “lom” qo`shib, sifat ma’nosidagi yasol, qabol, tunqol, birqol, tusqol, sevarg`ol kabi.

Alisher Navoiy o‘zbek (turkiy) tilining buyuk himoyachisi va rivojlantiruvchisi sifatida tarixda alohida o‘rin tutadi. U tilni millatning ruhi, ma’naviy boyligi va madaniyatining asosi deb bilgan.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy yashagan davrda ilm-fan va adabiyot asosan fors tilida yaratilardi. Shunga qaramay, u turkiy tilning imkoniyatlari keng va boy ekanini amalda isbotladi. Uning fikricha, turkiy til nafis ma’no va badiiy ifodaga juda mos, faqat undan to‘g‘ri foydalanish kerak. Navoiy o`z asarlarida turkiy va fors tillarini qiyosiy tahlil qilib, turkiy tilning ayrim jihatlarda ustunligini dalillar bilan ko‘rsatadi. U:

- turkiy tilda bir ma’noni ifodalash uchun ko‘plab so‘zlar mavjudligini,
- so‘z yasash imkoniyatlari kengligini,
- ifoda kuchi va ohangdorligi yuqori ekanini ta’kidlaydi.

Navoiy tilni shunchaki aloqa vositasi emas, balki ma’naviy tarbiya quroli deb bilgan. U nafaqat nazariy fikr bildirgan, balki o‘z ijodi bilan ham turkiy tilning qudratini ko‘rsatgan. Uning “Xamsa”si va g‘azallari turkiy tilning yuksak badiiy imkoniyatlarini namoyish etadi. Qisqasi, Alisher Navoiy turkiy tilni ilmiy asosda himoya qilgan, uni adabiy til darajasiga ko‘targan, tilni milliy o‘zlik va ma’naviyat timsoli sifatida talqin qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1.A.Muxtorov, U.Sanaqulov. “O`zbek adabiy tili tarixi”. O`quv qo`llanma. – Toshkent: O`qituvchi nashriyoti, 1995.

2.Alisher Navoiy. “Muhokamat ul-lug`atayn”. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2000.

3. G`aniyev I. “Alisher Navoiyning tilshunoslik qarashlari”. – Toshkent: Fan nashriyoti. 2006.

4.Qosimov B. va boshqalar. “Milliy uyg`onish davri o`zbek adabiyoti”. - Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2004.

5. Qurbonov M. “Alisher Navoiyning tilshunoslik merosi”. – Toshkent: Universitet, 2011.

6.Abdurahmonov G`., Rustamov A. “Navoiyning til mahorati”. – Toshkent: Fan, 1979.